

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI<sup>21</sup>

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

## O'QISH JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTERAKTIV METODLAR, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Zarina Hayitboyeva Otanazarovna

Xo'jayli tumani 3-son mакtab psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli xil ta'lismi-tarbiya jarayonlari, o'qitish tizimi, uslublari va shu bilan birligida interaktiv metodlar, texnologiyalardan foydalanish, ularning qo'llanilish uslublari hamda ta'lismi tizimida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Amaliyot, ta'lismi-tarbiya, interaktiv metod, pedagogik texnologiya, mashg'ulot, dars usullari.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqorolik jamiyatni qurish yo'lidan bormoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi-har tomonlama rivojlangan barkamol insondir. Fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lismi va tarbiya berishning maqsad, mazmun va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash pedagogika, shu qatori metodika fanining dolzarb muammolaridan biridir. Shu ma'noda ta'lismi tizimida fan-texnika yutuqlarini qo'llash, zamnaviy axborotlardan voqif bo'lismi, global internet tarmog'i multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalarini egallash va ularni o'quv jarayoniga faol tadbiq etish, ta'lismi jarayonlarini tashkillashtirishda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llash ham alohida ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya-ta'lismi shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarining majmui bo'lib, o'qitishning rejalishtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir. U o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilishi bo'yicha barcha tafsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. Demak, yangi pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan usul va vositalarning yig'indisidan iborat. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limi tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqidir.

O'qituvchi pedagoglar mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lismi jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lismi oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Ta'lismi-tarbiya jarayoni juda mas'uliyatli bo'lib, bunda har tomonlama keng fikrlash, turli xil yangi idealar topishni talab qiladi. Interaktivlik ham shular jumlasiga kirib bu terminning o'zi „interaktiv” inglizcha „Interact” so'zidan kelib chiqqan „Inter”-o'zaro, „Act”-ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. Demak interaktiv deganda o'zaro ishslash, faoliyat ko'rsatish yoki suhbat tartibda kim bilandir ( inson bilan ) dialog ( muloqot ) holatida bo'lish tushuniladi. Shunday qilib interfaol o'qitish-bu muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interaktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, taxlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Dialogli o'qitish jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI<sup>22</sup>

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

tegishli axborotni taxlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamlab qo'yishga, asosli ravishda qaror qabul qilishga, disskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual o'yinlar qo'llaniladi, xuijjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo'llaniladi. Interaktiv usullar bo'yicha o'qitish tashkil etilganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni masalasidir. Vazifaning mazmuni o'qitishning an'anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq xarakterga ega bo'lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma'lum bir paragrafni konspektini olish vazifa sifatida berish maqsadga muvofiq emas, chunki har bir o'quvchi bu ishni o'zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyat shuni ko'rsatmoqdaki, muammoni nostandard qo'yilishigina o'quvchilarni bir-biridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa guruhning umumiyl fikrini shakllantirishga undaydi.

Ushbu yangi pedagogik texnologiyalar amaliyotga tadbiq etila boshlaganda yaxshi samara bermoqda. O'quv faoliyatini tashkil etishda talabalarning o'zaro yordam va o'zaro hamkorligi alohida o'rinn tutadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yangi texnologiyalar bu o'z-o'zidan o'ylab topiladigan yoki qayerdan ko'rib uni sinab ko'rildigan jarayon emas. Bunda albatta vaziyatdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini hisobga olgan holda, dars jarayonini tashkil etishdagi vaziyatlarni ko'rib chiqqan holda amalga oshirish mumkin. Yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish albatta yaxshi natijalar beradi, ammo buni darrov amalga oshirish emas, balki bosqichma-bosqish amalga oshirgan ma'qul.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq, 1997. -20-bet.
2. Musayev U. Ta'lim jarayonini erkinlashtirish prinsiplari Xalq ta'limi. –T., 2005. 4-10-bet.
3. Muhamedov G.I., To'raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari –Jizzax: Fan, 2004-228-bet.